



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI  
BUYRUG‘I**

20 noyabr 2025 yil.

1744-son

Toshkent sh.

**“Dermatovenerologiyakelajagi: texnologiya, tadqiqot va amaliyot”  
xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4055-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 490-son buyrug‘ida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N :**

1. 2025-yil 12-noyabr kuni Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet)da “Dermatovenerologiya kelajagi: texnologiya, tadqiqot va amaliyot” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani (keying o‘rinlarda – Xalqaro anjuman) o‘tkazilsin.

2. Xalqaro anjumanni tashkillashtirish uchun mas‘ul etib Dermatovenerologiya, bolalar dermatovenerologiyasi kafedrasini mudiri, professor K.N.Xaitov, dotsenti N.B.Bababekova hamda assistentlari A.V.Mun va D.D.Nabiyeva tayinlansin.

3. Quyidagilar:

Xalqaro anjumanni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, uni o‘tkazish va boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshirish uchun mas‘ullar 1-ilovaga;

Xalqaro anjuman dasturi 2-ilovaga;

Xalqaro anjumanda ma‘ruza bilan ishtirok etuvchi Universitet xodimlarning ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilovga:

Xalqaro anjumanga yetakchi xorijiy olimlarning taklif etilishi va ularni ishtirokini ta‘minlash choralari ko‘rilsin.

6. Magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov va Dermatovenerologiya, bolalar dermatovenerologiyasi kafedrasini mudiri K.N.Xaitov, 1-son Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasini mudiri U.A.Tashkebayeva, 2-son Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasini mudiri B.S.Azizovga:

Xalqaro anjumanda ishtirok etadigan “Dermatovenerologiya” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan 4-ilovada nomlari ko‘rsatilgan magistrant va klinik ordinatorlarning ishtiroki ta‘minlansin.

Xalqaro anjumanda ishtirok etadigan magistrant va klinik ordinatorlarga 2025-yilning 12-noyabr uchun o‘rtacha reyting ballari qo‘yib berilishini ta‘minlansin.

7. Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i A.K.Musaxonovga:

Xalqaro anjumanni ochilish va sifatli o‘tkazish uchun dasturiy ta‘minot bilan to‘liq ta‘minlansin.

8. Axborot va media xizmati X.A.Abidovga:

Xalqaro anjuman tafsilotlari ommaviy axborot vositalari hamda Universitetning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yoritilsin.

9. Moliya-iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektor N.L.Asqarovga:

Xalqaro anjumanga tashrif buyuruvchi xorijiy mehmonlarni esdalik sovg‘alar va suvenirlar bilan taqdirlash choralari ko‘rilsin.

10. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Dermatovenerologiya, bolalar dermatovenerologiyasi kafedrasini mudiri K.N.Xaitovga:

Xalqaro anjuman ishtirokchilariga o‘rnatilgan tartibda sertifikatlar topshirilsin.

Xalqaro anjuman o‘tkazilganligi to‘g‘risida hisobotni 3 kun muddat ichida Sog‘liqni saqlash vazirligining Fan-ta‘lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim qilinsin.

11. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor v.v.b.**



**T.A. Bobomuratov**